

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883445>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O‘QITISH METODIKASI

Mamadiyeva Bahora To‘ymurod qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya. *Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish metodikasi o‘quvchilarning o‘z ona tiliga bo‘lgan qiziqishini, hurmatini oshirish, nutq va yozuvdagi ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, tilni to‘g‘ri, samarali o‘zlashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar.*

Kalit so‘zlar: *Metodika, grammatika, so‘z boyligi, nutq madaniyati, interaktiv o‘qitish, individual yondashuv.*

Аннотация. Методика преподавания родного языка в начальных классах представляет собой научно-методические подходы, направленные на повышение интереса и уважения учащихся к родному языку, развитие их устной и письменной речи, а также правильное и эффективное овладение языком.

Ключевые слова: Методика, грамматика, лексика, культура речи, интерактивное обучение, индивидуальный подход.

Annotation. *The methodology of teaching native language in elementary grades is scientific and methodological approaches aimed at increasing students’ interest and respect for their native language, developing their speaking and writing skills, as well as correct and effective language acquisition.*

Key words: *Methodology, grammar, vocabulary, culture, interactive education, individual approach.*

Boshlang‘ich sinflarga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan eng muhim va kerakli fanlardan biri bu ona tili fani hisoblanadi. O‘sib kelayotgan yosh, murg‘ak avlodning jajji qalbiga ona tili tushunchasi ehtimol aynan o‘z tilini mehr-muhabbat ila o‘rgatilishi va o‘rganilishi orqali singgan...

Dunyoda tillar ko‘p va lekin, har bir millatning o‘z ona tilisi yagonadir. Xuddi shuning kabi, biz o‘zbeklarning ona tili, ya’ni onajonlarimizning allasi orqali butun qalbimizda yashagan jon-u dilimiz o‘zbek tilidir. Shu o‘rinda sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning go‘zal misralarini keltirsam:

Ona tilim, jon tilim

Sen o‘zingsan jon dilim,

Yuragimning to‘rida

Sayrab turgan bulbulim.

Sen borsan men tirikman

Suyumliman, suyukman,

Men sen bilan ardoqli

Men sen bilan tirikman!

Ona tilimizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qitilishi, o‘rgatilishi metodikasi ham til rivoji, ham uning ildizlari mahkam o‘rnashishi uchun juda muhim va beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodika o‘qitish jarayonida interaktiv, faol va individual yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi. Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, ularning fikrini ifodalashga imkon berish, grammatika va so‘z boyligini oshirish kabi metodlar asosiy o‘qitish tamoyillarini tashkil etadi. Shuningdek, matnli faoliyatlar, didaktik o‘yinlar va guruhli ishlar orqali o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish darajasi oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi o‘quvchilarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish va ularning nutq madaniyatini yuksaltirishdan iboratdir. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish yo‘llari va vositalari, ona tilini egallash, ya’ni nutqni, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish to‘g‘risidagi

ilmdir. Metodika maktab oldiga qo‘yilgan ta’lim va tarbiyaviy vazifalaridan kelib chiqib, ona tilini o‘rgatishning vazifalari va mazmunini belgilaydi, ta’lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlari va ta’lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish metodikasi — bu o‘quvchilarga ona tili asoslarini o‘rgatishda qo‘llaniladigan ilmiy-uslubiy yondashuvlar va metodlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu metodika o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri va samarali o‘zlashtirishini ta’minlashga qaratilgan. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasini turlicha tamoyillar orqali namoyon qilishimiz mumkin.

Masalan, 1. Faol o‘qitish metodlari: O‘quvchilarni faollashtirish, ularga o‘z fikrini ifodalashga imkon berish, mashg‘ulotlarni o‘yinlar, guruhli ishlar, va interaktiv metodlar orqali olib borish.

2. Model lashtirish va kuzatish: O‘qituvchi o‘zining nutqini va yozuvini o‘quvchilarga ko‘rsatib, to‘g‘ri uslublarni, grammatika qoidalarini o‘rgatadi. O‘quvchilar esa kuzatish va mashq qilish orqali bu uslublarni o‘zlashtiradi.

3. Til o‘rganishda individual yondashuv: Har bir o‘quvchining nutq rivoji va tilni o‘rganish tezligi turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun individual yondashuvga e’tibor qaratish muhim.

4. Matnli faoliyatlar va tushunishni rivojlantirish: Matnlarni o‘qish va ularga tahlil qilish, o‘quvchilarni fikr yuritishga undash, ular bilan muhokama qilish va savollar berish metodlari ishlatiladi.

5. Kreativ va didaktik o‘yinlar: O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va tilni o‘rganishni yanada qiziqarli qilish uchun turli xil o‘yinlar va didaktik mashqlar qo‘llaniladi.

6. Grammatika va so‘z boyligini rivojlantirish: Tilni o‘rgatishda grammatika qoidalarini va so‘z boyligini bosqichma-bosqich o‘rgatish, o‘quvchilarga to‘g‘ri va aniq gapirishni o‘rgatish maqsadida turli usullar qo‘llaniladi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish metodikasi o‘quvchilarga tilni qiziqarli tarzda o‘rgatishni, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Bundan tashqari boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: savod o‘rgatish metodikasi; o‘qish metodikasi; grammatika, fonetika, so‘z yasalishini o‘rganish metodikasi va nutq o‘sirish metodikasi.

Xulosa qilib aytganda, qolgan boshqa fanlar o‘rganilishi negizida, avvalo, ona tilini mustahkam o‘qib-o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, huquqshunoslik fanini o‘qib yurist bo‘lmoqchisiz chiroyli nutq lozim, istalgan chet tilini o‘rganmoqchisiz, avvalo, o‘z ona tilingiz grammatikasini puxta egallagan bo‘lishingiz kerak va albatta bexato yozuv ham siz haqingizda ko‘p narsalarni so‘zlaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. 3-bet. T. 2022
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. 5-bet. T. 2009. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlagan.